

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**

QarMII rektori

\_\_\_\_\_ Bazarov O.Sh.

“        ” \_\_\_\_\_ 2022 yil

**BUXGALTERIYA HISOBINING DASTURIY**  
**KOMPLEKSI**  
**FANINING**

**O'QUV DASTURI**

**Bilim sohalari:** 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

**Ta'lim sohalari:** 230000 – Iqtisod

**Ta'lim yo'nalishlari:** 5230700-Bank ishi va auditi

5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit (*tarmoqlar bo'yicha*)

**Qarshi – 2022 yil**

Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasining 2022 yil 22 iyundagi 21-sonli, Iqtisodiyot fakul'teti Kengashining 2022 yil 24 iyundagi 11-sonli hamda Institut Kengashining 2022 yil 28 iyundagi 11-sonli yig'ilishlarida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan.

**Tuzuvchi:**

**Djalilov R.H.**

**"Buxgalteriya hisobi va audit"  
kafedrası katta o'qituvchisi**

**Taqrizchilar:**

**Egamberdiyeva S.R.**

**"Buxgalteriya hisobi va audit"  
kafedrası dotsenti**

**Choriyev L.N.**

**"Langar tabiati" MChJ  
raisi**

## **I. O'QUV FANINING DOLZARBLIGI VA OLIY KASBIY TA'LIMDAGI O'RNI**

Ushbu fan iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyati to'g'risida ishonchli ma'lumotlar asosida boshqaruv qarorni qabul qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobining avtomatlashtirish usullari, fanning rivojlanish tendensiyasi, istiqboli hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar masalalarini qamrab oladi.

Buxgalteriya hisobining dasturiy kompleksi – bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida vujudga keladigan o'zgarishlarga tezda moslashish, iste'molchilarga talabini qondirish, raqobatbardosh yangi xizmatlarni vujudga keltirish va ularni tashkil etish hamda rivojlantirish masalalarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. “Buxgalteriya hisobining dasturiy kompleksi” (BHDK) fani xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi sodir bo'ladigan muomalalarni hisobga olish, ularni hujjatlashtirish, umumlashtirish, moliyaviy faoliyati to'g'risidagi to'liq va ishonarli ma'lumotlarni shakllantirish hamda ushbu ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda tezkor yuritish va qayta ishlashni o'rgatadi.

Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy (ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, iqtisodiy matematik usullar va modellar, informatika va axborot texnologiyalari), umumkasbiy (buxgalteriya hisobining nazariyasi, moliyaviy va boshqaruv hisobi, iqtisodiy tahlil nazariyasi) va ixtisoslik fanlar (moliyaviy va boshqaruv tahlili, audit, axborot tizimlari va texnologiyalari, statistika, soliq va soliqqa tortish) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

## **II. O'QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFASI**

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga zamonaviy avtomatlashtirilgan iqtisodiy axborot tizimlari orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobining dastlabki hujjatlari asosida yuritish, moliyaviy, statistik va soliq hisobotlarini tayyorlash va topshirish bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarga xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi mablag'lar, ularning tashkil topishi manbalarining harakatini elektron xujjatlar aylanmasida to'g'ri aks ettirish, buxgalteriya hisobining ob'ektlarini hisobga olish va elektron hisobotlarda aks ettirish, korxonalarda buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini realligini ta'minlash, yuqori tashkilotlar bilan hisoblashishlarni to'g'ri tashkil qilishni davlatimiz qonunlari, hukumat qarorlari, me'yoriy hujjatlar asosida o'rgatishdan iborat.

Talaba:

- buxgalteriya hisobining dasturiy kompleksi fanining predmeti va usullari;
- buxgalteriya hisobining dasturiy kompleksi nazariy asoslari;
- buxgalteriya hisobining dasturiy kompleksi tashkiliy tuzilishi;
- hisob bo'yicha amaliy dasturlar paketlari to'g'risidagi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning zamonaviy dasturlari;
- moliyaviy va soliq hisoboti shakllarini tuzish tartibi;
- buxgalteriya hisobi axborotining ta'rifi, tasniflanishi va xususiyatlari;
- korxona xususiyatidan kelib chiqqan holda schyotlar rejasiga o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish;
- faoliyat ko'rsatayotgan korxona ma'lumotlaridan foydalanilgan holda boshlang'ich qoldiqlarni shakllantirish;
- boshlang'ich qoldiqlarni kiritish;
- schyotlar bo'yicha qoldiqlarni kiritishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarining qo'llanilishi;
- buxgalteriya o'tkazmalari jarayoni;
- hisobot davrining yakunlanishiga tayyorgarlik;
- moliyaviy va soliq hisoboti shakllarini tuzish tartibi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **III. FANNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI HAMDA O'QUV MASHG'ULOTLARINI LOYIHALASH**

Fanni o'qitishda interfaol, kommunikativ, o'quv adabiyotlaridan tashqari autentik materiallar: audio, video, jurnallar, internet manbalaridan o'zlashtirilgan bilimlar majmuasini amaliyotda kuzatilayotgan dalil va hodisalarga bog'lay olish, olingan natijalarni baholash, tahlil qilish orqali kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va kompetentsiyalarni innovatsion tafakkur layoqati negizida shakllantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash jarayonida:

- mezonni tanlash;
- o'quv maqsadlarini toifalash;
- o'quv materiallarini modullashtirish;
- ularni o'rganish, tahlil qilish va qayta ishlash;
- o'rganish natijalarini aniqlash kabi omillarga qaratish orqali ta'lim oluvchida nazariy bilimlar puxta egallanishi hamda ularni amaliyotda qullash ko'nikmasini shakllantirish, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish talab etiladi.

### **IV. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)**

#### **1-mavzu. Buxgalteriya hisobining dasturiy komplekslari haqida tushuncha**

Buxgalteriya hisobida dasturlar va ulardan foydalanishning ahamiyati. "BHDK" dasturi. "BHDK" dasturi yaratilish tarixi va uning O'zbekistonda keng tarqalishi. "BHDK" dasturida konfiguratsiya va ma'lumotlar bazasi. "BHDK" foydalanuvchilar interfeysi bilan tanishish.

## **2-mavzu. Korxona haqidagi ma'lumotlarni va balansning boshlang'ich qoldiqlarini "BHDK" dasturiga kiritish**

"BHDK" dasturida korxonaning hisob siyosatini kiritish. Dastur sozlamalari. Korxonaning boshlang'ich qoldiqlarini kiritish. Korxonaning soliq hisobi parametrlarini sozlash.

## **3-mavzu. "BHDK" dasturida kassa va bank bilan bog'liq operatsiyalar hisobini yuritish**

Kassa operatsiyalari hisobi haqida tushuncha. Kirim kassa orderi ma'lumotlarini kiritish. Chiqim kassa orderi ma'lumotlarini kiritish. Avans hisoboti.

Tashkilotning bank hisobvaraqlari. Bank ko'chirmasi. Bank hisobraqamiga mablag'larning tushumini kiritish. Bank hisobraqamidan mablag'larning chiqimini kiritish.

## **4-mavzu. "BHDK" dasturida xaridlar va realizatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar hisobini yuritish**

Ishonchnomalar va ularni dasturga kiritish. Tovar va xizmatlar sotib olishni kiritish. My.soliq.uz sayti orqali shartnoma Ishonchnomalar, tovar va xizmatlarga oid hujjatlarni tayyorlash va yuborish, qabul qilish va o'zgartirish.

Sotib olishda vujudga keladigan qo'shimcha xarajatlar (tashish, yuklash-tushirish, sug'urta qilish va boshqalar)ni kiritish. Tovarlarining qaytarilishini kiritish. Solishtirma dalolatnomalarni shakllantirish.

My.soliq.uz sayti orqali tovarlarning qaytarilishini aks ettirish. Solishtirma dalolatnomalarni shakllantirish va yuborish. Tovar va xizmatlarni sotishga oid operatsiyalarni kiritish.

## **5-mavzu. "BHDK" dasturida ishlab chiqarish hisobini yuritish**

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish. Materiallarni ishlab chiqarishga berilishini hisobga olish. Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlarni sotish. Tugallanmagan ishlab chiqarishni inventarlash.

## **6-mavzu. "BHDK" dasturida xodimlar bilan bog'liq muomalalarni kiritish va ish haqi hisobini yuritish**

Xodimlarning ishga olinishi haqida ma'lumotlarni kiritish. Ish kunlari kalendarini kiritish. My.mehnat.uz saytida ish o'rinlarini hisobga olish. Bo'sh ish o'rnini yaratish.

Xodimlar harakatini rasmiylashtirish tartibi. Xodimlarning ishda bo'lmasligini kiritish. Xodimlarga tabel qilish. Xodimlarni ishdan bo'shashini dasturga kiritish. Xodimlarga ish haqi hisoblashni kiritish.

Xodimlarga hisoblangan ish haqi hisoblash, uni soliq hisobotlarida hisobga olish. Xalq banki tizimi (JBPT)da aks ettirish.

## **7-mavzu. “BHDK” dasturida hisobotlarni yaratish, ularni chiqarib olish va hisobot oyini yopish**

Reglament hisobotlari haqida tushuncha. Hisobotlarni yaratish. Foyda solig'i hisobotini yaratish. QQS hisobotini yaratish. Moliyaviy hisobotlarni yaratish. Dasturda hisobot oyini yopish.

### **V. Amaliy mashg'ulotlarlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:*

- amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

*Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Buxgalteriya hisobining dasturiy komplekslari haqida tushuncha.
2. Korxona haqidagi ma'lumotlarni va balansning boshlang'ich qoldiqlarini “BHDK” dasturiga kiritish.
3. “BHDK” dasturida kassa va bank bilan bog'liq operatsiyalar hisobini yuritish.
4. “BHDK” dasturida xaridlar va realizatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar hisobini yuritish.
5. “BHDK” dasturida ishlab chiqarish hisobini yuritish.
6. “BHDK” dasturida xodimlar bilan bog'liq muomalalarni kiritish va ish haqi hisobini yuritish.
7. “BHDK” dasturida hisobotlarni yaratish, ularni chiqarib olish va hisobot oyini yopish.

*Amaliy mashg'ulot mavzularida fanning ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilishi mumkin.*

Amaliy mashg'ulot o'tkazishda multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruhaga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, “Keys-stadi” texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi.

Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

### **VI. MUSTAQIL TA'LIM**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. “Buxgalteriya hisobining dasturiy kompleksi” fanining mazmuni va mohiyati.
2. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini axborot tizimiga kiritish.

3. Buxgalteriya hisobining dasturiy kompleksi faniga kirish.
4. Korxona haqidagi ma'lumotlarni va balansning boshlang'ich qoldiqlarini "BHDK" dasturiga kiritish.
5. "BHDK" dasturida kassa va bank bilan bog'liq operatsiyalar hisobini yuritish. Mehnatga haq to'lash va ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar hisobini avtomatlashtirish.
6. "BHDK" dasturida xaridlar va realizatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar hisobini yuritish.
7. "BHDK" dasturida ishlab chiqarish hisobini yuritish.
8. "BHDK" dasturida xodimlar bilan bog'liq muomalalarni kiritish va ish haqi hisobini yuritish.
9. "BHDK" dasturida hisobotlarni yaratish, ularni chiqarib olish va hisobot oyini yopish.
10. O'zbekiston Respublikasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yangi avlodlariva ulardan iqtisodiyot sohasida foydalanish imkoniyatlari.
11. Buxgalteriya hisobi dasturiy kompleksining nazariy asoslari.
12. Buxgalteriya hisobi dasturiy komplekslarida foydalaniladigan axborotlarning turlari, boshqa dasturiy komplekslari bilan o'zaro bog'liqlik jihatlari.
13. Buxgalteriya hisobi dasturiy kompleksining tashkiliy tuzilishi.
14. Hisob va audit bo'yicha amaliy dasturlar paketlari to'g'risidagi tushuncha.
15. Boshlang'ich hisob hujjatlarini elektron hujjat tarzida tuzish va taqdim etish.
16. Iqtisodiy axborotlarni qayta ishlash texnologiyalarini tarixiy bosqichlari va rivojlanish istiqbollari.
17. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning zamonaviy dasturlarining asosiy elementlari.
18. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlariga turli xil yondoshuvlar va modellar asosida yoritish.
19. Buxgalteriya hisobi axborotining ta'rifi, tasniflanishi va xususiyatlari.
20. Korxona xususiyatidan kelib chiqqan holda schyotlar rejasiga o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish.
21. Faoliyat ko'rsatayotgan korxona ma'lumotlaridan foydalanilgan holda boshlang'ich qoldiqlarni shakllantirish.
22. Boshlang'ich qoldiqlarni kiritish: schyotlar bo'yicha qoldiqlarni kiritish.
23. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarining qo'llanilishi.
24. Buxgalteriya o'tkazmalari jarayoni.
25. Xodimlarning hisobiga doir hujjatlar bilan ishlash jarayonini avtomatlashtirish.
26. O'rindoshlik asosida ishlaydigan xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobini avtomatlashtirish.
27. Uzoq muddatli aktivlar tarkibini shakllantirish va avtomatlashtirish asoslari.
28. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini avtomatlashtirish.
29. Hisobot davrining yakunlanishiga tayyorgarlik. Elektron raqamli imzoning mazmuni va mohiyati.
30. Moliyaviy va soliq hisoboti shakllarini tuzish tartibi.

31. Elektron tijorat texnologiyalari va internet tijorati mazmuni.
32. Universal hisobotlarni shakllantirish tartibi.

*Fanning ishchi o`quv dasturini ishlab chiqishda mustaqil ta`lim va mustaqil ish mavzularida qo`shimcha va o`zgartirishlar kiritilishi mumkin.*

Mustaqil o`zlashtiriladigan mavzular bo`yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## **VII. FAN BO`YICHA KURS ISHI (LOYIHASI)**

Fan bo`yicha kurs ishi o`quv rejada ko`zda tutilmagan.

## **VIII. ASOSIY VA QO`SHIMCHA O`QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI**

### **ASOSIY ADABIYOTLAR**

1. Egamberdiyeva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O`quv qo`llanma. -T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b.
2. Kuljonov O., Xusinov I., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. O`quv qo`llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -237 b.
3. Norbekov D., Misirov K., Tashmanov G`. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O`quv qo`llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -194 b.
4. Xasanov B., G`aniev Z., Muxammedova D. Boshqaruv hisobi. O`quv qo`llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -279 b.
5. Accounting Information Systems, Seventh Edition. James A. Hall, 2011, South Western Cengage Learning, USA.
6. Karimov A., Mukumov Z., Tulaev M., Kurbanbaev J., Raxmonov SH. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O`quv qo`llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018 y. – 194 bet.
7. Kuznetsova N.V. K voprosu ob avtomatizatsii buxgalterskogo ucheta materialno-proizvodstvennix zapasov/ N.V. Kuznetsova, V.A. Xodyachix, T.I. Kurbanaliev // Vestnik Voronejskogo gosudarstvennogo universiteta injenernix texnologiy. – 2017. – t.79. - №3. – s. 194-202.
8. Tulayev M.S. Buxgalteriya hisobida axborot tizimlari. O`quv qo`llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2016. - 202 b.

### **QO`SHIMSHA ADABIYOTLAR**

9. “Ўзбекистан Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони.
10. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. — Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. - 488 б.

11. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. - Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. - 104 б.
12. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 56 б.
13. Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. — Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. -48 б.
14. Karimov A., Muqumov Z, Tulayev M., Kurbanbayev J., Raxmonov Sh. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O‘quv qo‘llanma. —Т.: Iqtisod moliya, 2018.-194 b.
15. Бахолдина И. В., Голышева Н. И. Бухгалтерский финансовый учет: Учебное пособие/ - М.: Форум, НИЦ ИНФРА-М, 2016.
16. Сотиволдиев А., Болибеков Б. Сборник задач по предмету “Теория бухгалтерского учета” Т.: 2013 19.
17. Мирошниченко Т.А. Бухгалтерский финансовый учет и отчетность (продвинутый уровень): учебник. Персиановский: изд-во ДонГАУ, 2015
18. An Introduction to Accounting Theory, 1st edition. UWS, Australia, 2016.
19. Intermediate Accounting (15th Edition) English, 557 pages, Kieso, Weygandt and Warfield, 2013.
20. Wan Madznah Wan Ibrahim Mohd Rizal Palil “Fundamentals of Business Accounting” 2nd edition Published by Oxford Fajar Sdn. Bhd. Selangor Darul Ehsan, Malaysia, 2014.
21. Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Ducae “Financial and Managerial Accounting” 12th edition, South-Western, Cengage Learning, USA, 2014.

#### **INTERNET SAYTLARI:**

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) (O‘zbekistan Respublikasi hukumat portali)  
[www.mf.uz](http://www.mf.uz) (O‘zbekistan Respublikasi Moliya vazirligi)  
[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) (Axborot ta’lim tarmog’i)  
[www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O‘zbekistan Respublikasi qonun Hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)  
[www.stat.uz](http://www.stat.uz) (O‘zbekistan Respublikasi Statistika Qumitasi)  
[www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) (O‘zbekistan Respublikasi Soliq Qumitasi)  
[www.accountingtools.com](http://www.accountingtools.com) (Buxgalterlar uchun qullanmalar sayti)  
[www.ifrs.org](http://www.ifrs.org) (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fondi sayti)





